

RASMIY MUNOSABAT



RASMIY MUNOSABAT

RASMIY MUNOSABAT

Joriy yilning 2-mart kuni ijtimoiy tarmoq orqali Surxondaryo viloyat, Termiz shahar, "Pattakesar" mahallasi Furqat ko'chasi 62-uydan va mahalla aholisidan "Ko'chamiz yog'ingarchilik bo'lsa yurib bo'lmaydi, har yili shu axvolda yashab kelayapmiz. Murojaat qilamiz bajaramiz deyishdan nariga o'tishmaydi. Iltimos ko'chamizni asfalt qilib berishingizni so'raymiz" mazmunidagi murojaat yo'llangan. Ushbu murojaat yuzasidan quyidagilar malum qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2019 yil 14 dekabrda "Surxondaryo viloyati Termiz shahri va Termiz tumani chegaralarini o'zgartirish to'g'risida"gi SQ-561-III-sonli qarori hamda Surxondaryo viloyat hokimining 2020-yil 6-yanvardagi Q-8-sonli qarorlariga asosan Termiz shahri va Termiz tumani chegaralari o'zgartirilgan. Chegara o'zgartirilishi natijasida Termiz tumani hududidan Termiz shahar hududiga o'tkazilgan "Pattakesar" mahallasida ichki yo'llar uzunligi 22,3 km.ni, shundan asfalt qoplamali yo'llar 2,0 km, 16,3 km shag'al qoplamali yo'llar bo'lsa, qolgan 4,0 km uzunlikdagi tuproq yo'llarni tashkil etadi. Shuningdek, uzunligi 176 metr bo'lgan "Furqat" ko'chasi

ham tuproq yo'l hisoblanadi. Shu boisdan Termiz shahrida iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli og'ir bo'lgan mahallalarning infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha manzilli dastur qabul qilingunga qadar, bugungi kunda yo'l infratuzilmasi og'ir bo'lgan "Pattakesar" mahallasi hududida tosh to'shash (GPS) ishlari amalga oshirilmoqda. Yuqoridagi murojaatni inobatga olib, 10 (kun) muddatda mahallaning uzunligi 176 metr "Furqat" ko'chasiga tosh to'shash (GPS) ishlari amalga oshirilishini ma'lum qilamiz.